



OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATLARINING ZAMBURUG'LI KASALLIKLARIDA EOZINOFIL KO'RSATKICH

Turaqulov Otabek Murodullayevich

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Stomatologiya fakulteti talabasi*

Abdiraimov Azim Akbarovich

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Stomatologiya fakulteti talabasi*

Shayqulov Hamza Shodievich

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti (Ilmiy
rahbar)*

Annotatsiya. *Yallig'lanish patogenezida o'ziga xos allergik komponentlar - eozinofil hujayralarini og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarida surunkali zamburug'li kasalliklari bo'lgan bemorlarda, yallig'lanish eksudatlaridan aniqlanishi, bu jarayonning qay darajada kechayotganligini ob'ektiv baholash va qo'llanilayotgan terapiya samaradorligini baholashga imkon beradi.*

Kalit so'zlar: *Yallig'lanish, allergiya, eozinofil, leykotsit, og'iz bo'shlig'i, shilliq qavat, surunkali zamburug'li kasalliklar, stomatologiya.*

Amaliy tibbiyotning boshqa sohalarida bo'lgani kabi, stomatologiyada ham og'iz bo'shlig'idagi surunkali yallig'lanishlardagi ajratmalarni sitologik tekshirish, organizmning reaktivlik holatini o'rganish, ushbu yallig'lanish jarayonining qay darajada kechayotganligini ob'ektiv baholash va qo'llanilayotgan terapiya samaradorligini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Yallig'lanish patogenezida o'ziga xos allergik komponentlarning mavjudligi, va shuning uchun ob'ektiv ko'rsatkichlardan biri bo'lgan eozinofil hujayralarining infiltratsiyasi tashxislashda ahamiyatli hisoblanadi. Yallig'lanish o'chog'ida eozinofil hujayralarining to'planishi va keyinchalik ularning to'qimadan ajralishi antigenning antitelo bilan birikishi va o'zaro ta'sirlanishi natijasida yuzaga keladigan "organ- shok" reaksiyasi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan, yuqori nafas yo'llari va og'iz bo'shlig'idagi yallig'lanishning surunkali kasalliklarida allergik omilni aniqlashda eozinofillarni aniqlash katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Tadqiqotning maqsadi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarida surunkali zamburug'li kasalliklari bo'lgan bemorlarda yallig'lanish eksudatlarida eozinofil leykotsitlarini aniqlash.

Materiallar va usullar. Biz surunkali stomatit bilan og'rigan 311 bemorlarda (183 erkak va 128 ayol) kasallikning davomiyligi 2-3 haftadan 3-5 oygacha va



undan ko'proq vaqt davomida kuzatdik. 311 bemorning 60 tasida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarining zamburug'li infeksiyasi aniqlangan. Tashxis maxsus mikologik tadqiqotlar (og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlaridagi oq pardalardan olingan surtmalar Gram usulida bo'yalib mikroskopiya qilish va Caburo muhitiga ekib, sof kulturalarini izolyatsiya qilish) bilan tasdiqlandi.

Olingan surtma-preparatlar shisha oynachalarga fiksatsiyalanib Romanovski-Gimza usulida bo'yalgach mikroskopik o'rganildi. Hujayra elementlarining, ayniqsa eozinofil leykotsitlarining holati mikroskopik tarzda baholandi. Eozinofil leykotsitlar hujayralarning miqdoriy nisbati ularning har 100 ta hujayra elementining umumiy soniga nisbatan hisoblash yo'li bilan aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. 25 nafar bemorda aspergillus, 16 nafarida kandida, 11 nafarida penitsillium, 4 nafarida alternariya, 3 nafarida kladosporium turkumidagi zamburug'lar kasallik qo'zg'atuvchilari ekanligi aniqlanib, 1 holatdagina zamburug'lar aniqlanmadi.

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarida zamburug'li kasalliklari bo'lgan 60 bemorda va nazorat qilish uchun surunkali stomatiti bo'lgan 32 bemordan olingan ajratmalar sitologik tekshirildi.

Surtma - preparatlarni o'rganishda - og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarining zamburug'li shikastlanishi bo'lgan bemorlarda olingan tekshiruv materiallarida 60 nafar bemorning 45 nafarida turli miqdorda eozinofil hujayralari topildi. 7 nafar bemorda ko'p miqdordagi eozinofillar (7 dan 10% gacha va undan yuqori), 18 nafarida - o'rtacha (4 dan 6% gacha) va 20 nafarida - kam miqdordagi eozinofillar (1 dan 3% gacha) aniqlandi. Surunkali yiringli stomatiti bo'lgan (zamburug'li tabiatga ega bo'lmagan) 32 nafar bemorning 15 nafarida eozinofillar topildi, ammo bu hollarda ularning soni hech qachon 5% dan oshmadi.

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarini surtma - preparatlarni o'rganishda ko'p miqdorda eozinofillar topilgan bemorlarning anamnezini tahlil qilinganda bu bemorlarning ko'pchiligida turlicha bo'lgan yuqumli kasalliklar (qizamiq, skarlatina, gripp) bolalik davridayoq og'ir darajada o'tganligini aniqladik. Bunday bemorlarda kasallikning davomiyligi ham sezilarli darajada cho'zilganligi ma'lum bo'ldi. Stomatit tez-tez bo'lib turishi, uzoq davom etishi bilan xarakterlanar edi. Allergiya tarixini o'rganishda 4 nafar bemorda oziq-ovqatga nisbatan allergiya borligi, 5 nafarida turli dori-darmonlarni qabul qilma olmaslik, 6 nafarida vazomotor rinit, 3 nafarida ekzema, 3 nafarida qichima, 1 nafarida bronxial astma borligi aniqlandi.



Parallel tadqiqotlar o'tkazilganda ajratmalardagi eozinlarning miqdori periferik qondagi eozinofillarning miqdorining - mutlaq sonining ko'payishi bilan tez-tez bog'liqligini ko'rsatdi. Bu holatni og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlari mikozlari bo'lgan 11 nafar bemorda qayd etdik.

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlarining zamburug' kasalliklari bilan og'rikan 60 nafar bemorning 27 nafari periferik qonida eozinofillarning mutlaq soni ko'payganligi aniqlandi. Zamburug'li bo'lmagan surunkali yiringli stomatit bilan og'rikan 32 nafar bemorning 10 tasida eozinofillarning mutlaq sonining ko'payishi, 3 nafarida esa keskin ko'tarilgan. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlari mikozlari bilan og'rikan bemorlarning 19 nafarida bu ko'rsatkichlar keskin oshgan.

Xulosa: Shunday qilib, og'iz bo'shlig'i shilliq qavatlari va periferik qondagi eozinofillarning ko'p miqdorda bir vaqtda ortishini organizmni zamburug'lar tomonidan sezgirligini oshganligi va allergiya belgisi sifatida qarash mumkin.

Adabiyotlar.

1. Индиаминов С., Расулова М. Критерии оценки степени тяжести повреждений носа //Журнал вестник врача. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 36-40.
2. Одилова Г. М., Шайкулов Х. Ш., Хусанов Э. У. Ультрaструктура слизистой толстой кишки у больных острой дизентерией //Астана медициналык журналы. – 2022. – №. S1. – С. 62-68.
3. Расулова М. Р., Юлаева И. А., Шодиев Ж. Х. СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 225-235.
4. Хожаназарова С. Ж. MORPHOLOGICAL STATE OF THE INTRA-ORGAN VESSELS OF THE FEMALE GENERAL ORGANS UNDER CHRONIC PESTICIDE EXPOSURE //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 98-104.
5. Хожаназарова С. Ж. Вікові особливості внутрішньоорганних вен маткових труб //Вісник наукових досліджень. – 2010. – №. 3. – С. 92-93.
6. Шайкулов Ҳамза Шодиевич, Нарзиев Джавохир Убайдуллаевич БОЛАЛАР ИЧАК ЭШЕРИХИОЗИНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №17. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-ichak-esherihiozini-davolashda-antibiotikorezistent-laktobakteriyalardan-foydalanishning-samaradorligi>



7. Шайқулов Ҳамза Шодиевич, Эрматов Низом Жумакулович, Расулова Мухсина Розиковна, Шодиев Жавохир Хамзаевич, & Хожаназарова Саулехан Жубатировна. (2023). MICROSOFT EXCEL ЭЛЕКТРОН ЖАДВАЛИДАН ФОЙДАЛАНИБ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ СТАТИСТИК ҲИСОБЛАШ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 67–75. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/691>
8. Эрматов Ж. Физическое воспитание как фактор снижения заболеваемости детей и подростков //Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Биология, клиническая медицина. – 2011. – Т. 9. – №. 2. – С. 222-226.
9. Эрматов Ж. Физическое воспитание как фактор снижения заболеваемости детей и подростков //Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Биология, клиническая медицина. – 2011. – Т. 9. – №. 2. – С. 222-226.
10. ERMATOV N. et al. Expression of tissue-specific genes in mice with hepatocarcinogenesis //International Journal of Pharmaceutical Research (09752366). – 2020. – Т. 12. – №. 3.